

FUQAROLIK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA DORI VOSITALARI

Mirshoxid Raximjonov
O‘zbekiston Milliy universiteti
“Yurisprudensiya” ta’lim yo‘nalishi
talabasi

Ilmiy raxbar:
Gavxar Muxutdinova
O‘zbekiston Milliy universiteti
“Huquqiy fanlar” kafedrası
o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Muallif mazkur maqolada fuqarolik huquqining obyektı sifatida dori vositalarini nazariy va amaliy jihatdan taxlil etgan. Shuningdek, dori vositalarini fuqarolik xuquqi va intellektual mulk xuquqining obyektı sifatida o‘ziga xos muammolarini xar tomonlama o‘rgangan holda ilmiy asoslangan nazariy xulosalar ishlab chiqish, aholini sog‘lig‘ini saqlash sohasidagi davlat siyosatini mustahkamlash bo‘yicha o‘zining taklif va tavsiyalarini ilgari surgan.

Kalit so‘zlar: xuquq obyektı, huquqiy munosabatlar obyektı, fuqarolik muomilasi obyektı, intellektual mulk obyektı, subyektiv xuquq obyektı, dori, dori vositalari, farmatsevtik moddalar.

АННОТАЦИЯ

В данной статье автор проанализировал лекарственные препараты как объект гражданского права с теоретической и практической точки зрения. Также им были разработаны предложения и рекомендации по усилению государственной политики в области здравоохранения, разработаны научно обоснованные теоретические выводы путем всестороннего изучения конкретных проблем лекарственных средств как объекта гражданского права и права интеллектуальной собственности.



Ключевые слова: объект права, объект правоотношений, объект гражданских правоотношений, объект интеллектуальной собственности, объект субъективного права, лекарственные средства, фармацевтические субстанции.

ANNOTATION

In this article, the author analyzed drugs as an object of civil law from a theoretical and practical point of view. He also developed proposals and recommendations to strengthen state policy in the field of health care, developed scientifically based theoretical conclusions through a comprehensive study of specific problems of medicines as an object of civil law and intellectual property law.

Key words: object of law, object of legal relations, object of civil relations, object of intellectual property, object of subjective law, drugs, medicines, pharmaceutical substances.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilib kelinayotgan iqtisodiy islohotlarning samarali rivojlanib borishi bevosita fuqarolik-huquqiy munosabatlarning barqarorligiga bog‘liq bo‘lib, bunday barqarorlikni ta‘minlash o‘z navbatida fuqarolik qonun hujjatlarini takomillashtirib borishni taqozo etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda va mamlakatda bozor iqtisodiyotini rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy zamin yaratishga imkon berdi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi rivojlanishining yangi bosqichi iqtisodiyotni yanada liberallashtirish, iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk kafolatlarini himoya qilishni kuchaytirish, tadbirkorlikning rivojlanishini rag‘batlantirish va xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish bo‘yicha ustuvor vazifalarni belgilab berdi. Real bozor iqtisodiyoti va ilg‘or xalqaro standartlar talablariga javob beradigan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladigan zamonaviy fuqarolik qonunchiligini shakllantirmasdan turib ushbu vazifalarga erishib bo‘lmaydi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishning eng muhim qoidalarini belgilovchi kodifikatsiya qilingan qonun hujjati bo‘lgan O‘zbekiston

Respublikasi Fuqarolik kodeksi fuqarolik qonunchiligi hujjatlari tizimida markaziy o‘rinni egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida fuqarolik xuquqining obyektlari jumlasiga: ashyolar; mol-mulklar; pullar va qimmatli qog‘ozlar; ishlar va xizmatlar; intellektual faoliyat natijalari; shaxsiy nomulkiy huquqlar kirishi ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 81-moddasiga asosan fuqarolik huquqiy munosabatlarning obyektlarini ularni xususiyatlari, belgilari va tartibga solinish asoslari, shuningdek ularning muomilada bo‘lishi yoki bo‘lmasligi xisobga olingan xolda ikki xil toifaga, ya’ni, moddiy va nomoddiy ne‘matlarga ajratiladi. [1, 17,19, 20]

O‘zbekiston Respublikasining asosiy qonuni Konstitutsiyada “Har kim sog‘lig‘ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega” ekanligi belgilab qo‘yilgan. Mazkur kafolatlangan xuquqlarni turli xil farmatsevtik dori vositalarini ishlatmasdan turib kafolatlab bo‘lmaydi.

Bu esa O‘zbekiston Respublikasi iste‘mol bozorida dori vositalarini tovar mahsuloti sifatida oldi-sotdi munosabatlarining obyekt sifatida muomilada bo‘lishini ko‘rsatadi.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, Rossiyada farmatsevtika bozorida dori vositalarini chakana savdosi alkogolli ichimliklar, benzin va avtomobil sotuvidan keyin to‘rtinchi o‘rinda turadi. [2]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi 158-son farmoni bilan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi tasdiqlandi.[3]

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 1.2. Aholi salomatligini ta‘minlash bo‘yicha islohotlar bandida:

Aholining o‘rtacha umr davomiyligini oshirish;

Aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni yanada yaqinlashtirish;

Bolalar o‘rtasidagi irsiy kasalliklarning oldini olish va davolash samaradorligini oshirish;

Onalar va bolalar o‘limini qisqartirish, sog‘lom bolalikni ta‘minlash;

Onkologik kasalliklarni erta aniqlash va o‘lim ko‘rsatkichini kamaytirish;

Yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish;
Sog‘lom va faol keksalikni ta‘minlash;
Aholi orasida to‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish;
Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish kabi maqsadlar va 2030 yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari belgilab berildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 23 yanvardagi “Farmatsevtika sohasini tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” [4]. gi 20-son farmoni aholini sifati, xavfsizligi va samaradorligi kafolatlangan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika bilan ta‘minlashni yanada yaxshilash hamda farmatsevtika mahsulotlari muomalasini tartibga solish jarayonlarini takomillashtirish maqsadida Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish va aholini sifatli dori vositalari bilan ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi.

Mazkur farmonda quyidagilar belgilab berildi:

birinchidan, dori vositalari va tibbiy buyumlarni tayyorlovchi, ulgurji hamda chakana realizatsiya qiluvchi tashkilotlar aholini sifati, xavfsizligi va samaradorligi kafolatlangan dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta‘minlash uchun mas‘ul bo‘lgan tashkilot sifatida e‘tirof etildi hamda ularga nisbatan davlat nazoratini amalga oshirishning alohida qoidalari belgilandi;

ikkinchidan, dori vositalaridan foydalanish bilan bog‘liq potensial xavf-xatarlarni tezkor aniqlash va ularga javob berishga qaratilgan, xalqaro standartlar talablari asosida quyidagilarni nazarda tutuvchi farmakologik nazorat tizimi tashkil etilishi belgilandi:

“Zarur farmakologik nazorat amaliyoti – GVP” standartini joriy etish;

Sog‘liqni saqlash vazirligida tibbiyot tizimining barcha bo‘g‘inlaridan dori vositalarining nojo‘ya ta’sirlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish hamda tahlil qilish imkonini beruvchi elektron axborot tizimini yaratish;

uchinchidan, dori vositalarini tibbiyot amaliyotida qo‘llashga ruxsat etishda ularning xavfsizligini nazorat qilish tizimi joriy etilishi belgilab qo‘yildi. Bunda, Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan farmakologik nazorat tahlili natijalari asosida inson salomatligiga zarar yetkazish xavfi yuqori bo‘lgan moddalar ro‘yxati shakllantiriladi.



Bir soʻz bilan aytganda mazkur farmonlar bilan aholini salomatligini taʼminlash uchun Oʻzbekiston Respublikasida 2030 yilgacha farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, shu oʻrinda fuqarolarni zaruriy dori vositalari bilan taʼminlash masalalari ustidan nazoratni kuchaytirish, xavfsizlikni taʼminlash maqsadlari xam belgilab berilgan.

Amaldagi qonunchilik va taʼlimotdagi yondashuvlarga muvofiq dori vositalari oʻzining xuquqiy tabiatiga koʻra tor maʼnoda intellektual mulk huquqining obyektiga keng maʼnoda fuqarolik huquqining obyektlariga tegishli boʻlib koʻrinadi. Shu maʼnoda dori vositalarini fuqarolik huquqining obyektlaridan biri sifatida uning huquqiy tabiatini taxlil qilish dolzarb masalalardan biri xisoblanadi.

Sivilistikada “xuquq obyektiga”, “huquqiy munosabatlar obyektiga”, “fuqarolik muomilasi obyektiga”, “subyektiv xuquq obyektiga” kabi tushunchalar va ularning bir biriga nisbatan mohiyati borasida yillar davomida baxs munozaralar olib borilmoqda.

V.A.Lapach oʻzining “Fuqarolik huquqi obyektlari tizimi: nazariya va sud amaliyoti” mavzusidagi tadqiqotida maʼlum bir neʼmatni mavjudligini koʻrsatish orqali Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining 128-moddasida sanab oʻtilgan “fuqarolik xuquqining obyektlari”ni barchasini aniq mohiyatini ochib beradi. [5] Muallifning nuqtai nazari shunisi bilan eʼtiborliki, “obyekt” tushunchasi nafaqat fuqarolik xuquqi fanida, balki uning chegaralaridan tashqarida xam yetarli darajada qiymatga ega. Mazkur nuqtai nazar fikrimizcha, asosli boʻlib koʻrinadi, chunki “obyekt” tushunchasi xuquq soxalarining barchasida, fan, oʻquv fanlarining asosiy kategoriyasi boʻlib xar qanday xuquqiy xodisani oʻrganishda nazariy va amaliy jixatdan axamiyatga ega.

S.S.Alekseyevning fikricha, fuqarolik huquqining obyektiga fuqarolik xuquqiy munosabatlarning vujudga kelishini asosi boʻlib xisoblanadi. Yaʼni, fuqarolik huquqi obyektlari-bu obyektivlashtirilgan moddiy va nomoddiy neʼmatlar boʻlib, ularga asosan fuqarolik xuquqlari va majburiyatlari vujudga keladi, fuqarolik-huquqiy munosabatlar shakllanadi va amal qiladi. [6]

X.R.Raxmonqulovning fikricha, fuqarolik huquqiy munosabatlarning obyektlarini tartibga solishga bagʻishlangan huquqiy normalar majmuasi fuqarolik huquqining asosiy institutlaridan xisoblanadi. [7]

I.B.Zokirovning taʼkidlashicha, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan foydalanishi va tasarruf etishi mumkin boʻlgan, erkin suratda olish, sotish huquqi va

odob-ahloq normalari bilan cheklanmagan yoki ta'qiqlanmagan har qanday moddiy narsalar va moddiy qiymatliklar, qadriyatlar boylik hisoblanib, fuqarolik huquqining obyekt bo'la oladi. [8]

Fuqarolik kodeksining 82-moddasida fuqarolik huquqi obyektlari tegishli obyektlarning muomalaga kirishuviga ko'ra uch guruhga ajratilgan. Muomalaga kirishuvi deganda obyektни oldi-sotdi shartnomasi asosida begonalashtirilishi yoki universal huquqiy vorislik asosida bir shaxsdan boshqa shaxsga o'tkazilishi mumkinligi nazarda tutiladi. Birinchi guruhga erkin muomaladagi huquqiy obyektlar, ikkinchi guruhga – muomalasi cheklangan obyektlar, uchinchi guruhga – muomaladan chiqarilgan obyektlar kiritilgan.

Fuqarolik huquqining obyektlari sifatida moddiy va nomoddiy ne'matlar fuqarolik-xuquqiy munosabat subyektlarining turli ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan. Bu sanab o'tilgan barcha obyektlarni birlashtiruvchi mezon bo'lib xisoblanadi. Bundan tashqari yuqorida berilgan ta'riflar asosida fuqarolik huquqining obyektlarini birlashtiruvchi quyidagi:

- 1)obyektlarning real mavjudligi;
- 2)miqdoriy va sifat jixatidan aniqlilik (identifikatsiya va klasifikatsiya qilish imkoniyati);
- 3) obyektlarning qiymati (shaxsiy va jamoaviy);
- 4) fuqarolik muomilasida ishtirok etish imkoniyati kabi mezonlarni keltirish mumkin. [9]

Ayrim mualliflar fuqarolik huquqining obyektlarini huquqiy tabiatiga ko'ra quyidagicha klassifikatsiya qilishadi:

- 1) mol-mulklar (moddiy ne'matlar);
- 2) ishlar va xizmatlar;
- 3) intellektual mulk;
- 4) nomoddiy ne'matlar [10]

Masalan V.A.Lapach fuqarolik huquqi obyektlari tizimida quyidagi: mulkiy ne'matlar; mulkiy va nomulkiy ne'matlar; shaxs bilan bog'liq nomulkiy ne'matlarni ajratib ko'rsatadi.

Fuqarolik - huquqiy munosabatlarning statikasi va dinamikasi tartibidan kelib chiqqan holda O.S.Ioffe fuqarolik huquqining obyektlarini ikki turga ya'ni, shaxsning subyektiv huquq obyekti (ashyo); xamda fuqarolik huquqiy munosabat obyektiga bo'ladi.



Adabiyotlarda fuqarolik huquqi obyektlarining mulkiy ne'matlar (pul qiymatiga ega bo'lgan)ga xamda shaxsiy nomoddiy ne'matlar (pul qiymatiga ega bo'lmagan va shaxs bilan uzviy bog'langan)ga ko'ra klassifikatsiyasi mavjud. [11,17,18].

Dori vositalarini fuqarolik huquqi obyektlari tizimida tutgan o'rnini aniqlash uchun eng avvalo dori tushunchasini zamirida qanday ma'no yotganligini taxlil qilish va uning xususiyatlarini aniqlash lozim.

Dori bu og'riq yoki uyquni chaqirish uchun qabul qilinadigan modda xisoblanadi. Buyuk tibbiyot Ensiklopediyasida dori tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan “dori” – kelib chiqishi tabiiy yoki sintetik bo'lgan kimyoviy birikmalar bo'lib ular odamlar va xayvonlarni kasalliklarini da'volash va ularni oldini olish uchun ishlatiladigan vositadir. [12].

Shu o'rinda fuqarolar dori vositalari deganda nimani tushunishi lozim degan o'rinli savol tug'iladi. Mazkur savolga javob O'zbekiston Respublikasining “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida” gi [13,15] qonunining 3-moddasida berilgan. Unga ko'ra, dori vositalari deganda - kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash, shuningdek odam organizmining holati va funksiyalarini o'zgartirish uchun tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori moddalari (substansiyalar) va yordamchi moddalar asosida olingan vositalar, dori moddalari (substansiyalar), dori preparatlari tushiniladi.

Fikrimizcha, FKning 81-moddasida sanab o'tilgan fuqarolik xuquqining obyektlari ichida faqat dori vositalari ashyolar tarkibiga kiradi. YA'ni, dori vositalari o'zlarining moddiy tabiatiga ko'ra birinchi navbatda intellektual faoliyat natijalariga taalluqli bo'ladi. Chunki ular o'zining moxiyatiga ko'ra g'oya ko'rinishida taqdim etiladigan ilmiy ijod maxsuli bo'lib ularni ifodalanish shakli moddiy shaklda bo'ladi masalan qattiq yoki suyuq xolatda bo'lishi mumkin.

Fuqarolik kodeksining 1031-moddasi bilan belgilangan intellektual mulk obyektlarini taxlil etish asosida quyidagilar namoyon bo'ladi: dori vositalari (patent xuquqi nuqtai nazaridan) ixtiroga tegishli, chunki u tibbiyot soxasidagi yechim bo'lib, u modda, moddalar birikmasi shaklida taqdim etilishi mumkin. Shu munosabat bilan dori vositalari ularni huquqiy ximoya qilish uchun quyidagi mezonlarga javob berishi lozim, ya'ni yangi bo'lishi, ixtiro darajasiga ega bo'lishi, sanoatda qo'llanilishi.



Intellektual mulk obyektlari fuqarolik huquqining alohida o‘ziga xos obyekt bo‘lib hisoblanadi. Intellektual mulk obyektlari fuqarolik huquqining boshqa obyektlari, ashyolar, qimmatbaho qog‘ozlardan quyidagi xususiyatlari bo‘yicha farq qiladi:

Birinchiidan, ko‘p hollarda intellektual mulk obyektlari moddiy ko‘rinishda emas, balki, g‘oya, bilim, axborot shaklida namoyon bo‘ladi;

Ikkinchiidan, g‘oya, bilim shaklidagi intellektual mulk obyektiga odatdagi moddiy ashyoga egalik qilganday egalik qilish mumkin emas;

Uchinchiidan, bunday obyektlardan bir vaqtning o‘zida cheksiz doiradagi shaxslar foydalana olishi mumkin;

To‘rtinchiidan, intellektual mulk huquqi obyektlariga mulk huquqining muddatsizligi haqidagi qoida (FKning 164-moddasi) qo‘llanilmaydi. Binobarin, ko‘pchilik hollarda (nou-xauga nisbatan istisnoni hisobga olmaganda) intellektual mulk huquqi amal qilishi qonunlarda belgilangan muddatlar bilan chegaralangan bo‘ladi;

Beshinchiidan, qonunlarda belgilangan muddatlar o‘tishi bilan intellektual mulk huquqi sohibining intellektual mulkning muayyan obyektiga nisbatan huquqlari bekor bo‘ladi va bu obyektlar umuminsoniy boylikka aylanib, har kim undan ma’lum shartlar asosida (muallifining shaxsiy huquqlariga rioya qilgan holda) tekin va ruxsatsiz foydalanishga haqli bo‘ladi;

Oltinchiidan, intellektual mulk huquqi obyektlari g‘oya ko‘rinishida bo‘lgan hollarda ularni ashyolar singari egallash mumkin emasligi, ulardan bir vaqtning o‘zida cheksiz doiradagi shaxslar foydalana olish imkoniyatlari mavjudligi sababli bunday obyektlarga nisbatan mulk huquqini himoya qilishda vindikatsion da’voni qo‘llash (FKning 228-moddasi) imkoniyati amalda mavjud emas;

Yettinchiidan, intellektual mulk huquqi obyektlariga nisbatan odatdagi mulk huquqi emas, balki mutlaq huquqlar haqidagi qoidalar qo‘llaniladi;

Sakkizinchiidan, intellektual mulk huquqining amal qilishi, ayni vaqtda, ma’lum hudud bilan ham chegaralangan bo‘ladi. Masalan, ixtiroga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Patent idorasi tomonidan berilgan patent O‘zbekiston Respublikasi hududida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi bilan xorijiy davlatlar o‘rtasida tuzilgan ikki tomonlama shartnomalar asosida belgilangan hududlardagina amal qiladi;



To‘qqizinchidan, ko‘pgina intellektual mulk obyektlariga nisbatan ularning mualliflarini shaxsiy huquqlari mavjud bo‘lib, bu obyektlardan foydalanuvchilar ushbu shaxsiy huquqlarga rioya qilishlari lozim bo‘ladi.

Terminalogiyada “Dori vositalari” tushunchasiga keladigan bo‘lsak shuni ta’kidlash joizki, ular intellektual faoliyat maxsulini ifodalaydi va ixtiro bilan bog‘liq intellektual faoliyatning natijasi yoki obyekti bo‘lib xisoblanadi. Bundan tashqari dori vositalariga nisbatan ixtiroga bo‘lgan extiyoj o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi, shunga qaramay dori vositalariga bo‘lgan extiyoj xajmi tobora ortib bormoqda.

COVID-19 pandemiyasi boshlanganidan beri dunyoda dori vositalari taqchilligi, tibbiy buyumlar narxining oshishi, qalbaki va kontrafakt tibbiy mahsulotlarning ko‘payishi kuzatildi, bularning barchasi global sog‘liqni saqlash inqirozini yanada kuchaytirdi.

Jahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, past va o‘rta daromadli mamlakatlarda muomalada bo‘lgan har o‘nta tibbiy mahsulotlardan bittasi sifatsiz yoki soxtalashtirilgan hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida bemorlar tomonidan kasalliklarni davolash yoki oldini olish uchun samara bermaydigan dori-darmonlar qabul qilishini ifodalaydi. Jahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti hisob-kitoblariga ko‘ra, qalbaki va kontrafakt dorilar aholining eng zaif qatlamlariga kuchli ta’sir qiladi va natijada jiddiy kasallik yoki hatto o‘limiga sabab bo‘ladi. [14,16].

Dori vositalarini ixtiroga tegishli ekanligi aniqlangandan so‘ng (intellektual mulk obyektlari ro‘yxatidan kelib chiqqan holda) dori vositalarini turlari bo‘yicha tizimlashtirish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasidan kelib chiqqan xolda dori vositalarini quyidagi klassifikatsiyasini taklif etish mumkin:

- 1) Qo‘llanish subyektlari bo‘yicha: insonlar uchun mo‘ljallangan dori vositalar va hayvonlar uchun mo‘ljallangan dori vositalari;
- 2) Maqsadiga ko‘ra qo‘llanilishi bo‘yicha: kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo‘yish va ularni davolash uchun mo‘ljallangan dori vositalari;
- 3) Muayyan biologik jarayonlarda qo‘llanilishi bo‘yicha: xomiladorlikni saqlash, oldini olish, xomiladorlikni tugatish uchun mo‘ljallangan dori vositalari;
- 4) Kelib chiqish manbasiga ko‘ra: qon, qon plazmasi, organlar, inson yoki xayvon tanasining to‘qimalari, o‘simliklar va minerallar;

5) Ishlab chiqish usullari bo‘yicha: sintez yo‘li bilan olingan va biologik texnologiyalar yordamida olingan dori vositalari;

6) Farmatsevtik moddalar (substansiyalar) va dori-darmonlar.

Yuqoridagi xolatlar, bugungi kunda fuqarolik huquqining obyektlari tizimidagi mavjud muammolarni har jihatdan va atroflicha ilmiy tadqiq etish zarurati mavjudligini anglatadi. Fuqarolik huquqi sohasidagi muammolarni har tomonlama nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish va ular haqida ilmiy asoslangan nazariy xulosalar ishlab chiqish, ularning mohiyatini anglab yetish, axolini sog‘lig‘ini saqlash borasidagi davlat siyosatini mustahkamlashga xamda ularni huquqiy tartibga solish mexanizmini ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1.Топилдиев В.Р. Фуқаролик ҳуқуқи. Дарслик. –Т., «Ҳуқуқ адабиётлар publish» 2022. 592 б.

2.Официальная статистика предпринимательства, розничная торговля [Электронный ресурс] // Официальный сайт Федеральной службы государственной статистики. – URL: <https://rosstat.gov.ru> (дата обращения: 09.03.2023).

3.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги «Ўзбекистон - 2030» стратегияси тўғрисидаги 158-сон фармони. (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023 й., 06/23/158/0694-сон; 29.12.2023 й., 06/23/214/0984-сон).

4.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 23 январдаги «Фармацевтика соҳасини тартибга солиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»¹ ги 20-сон фармони (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 24.01.2024 й., 06/24/20/0063-сон)

5.Лапач В.А. Система объектов гражданских прав: Теория и судебная практика. – СПб.: Издательство «Юридический центр Пресс», 2002. 544 с.

6.Гражданское право: учебник / С.С. Алексеев, Б.М. Гонгало, Д.В. Мурзин [и др.]; под общ.ред. С.С.Алексеева. – 3-е изд., перераб.и доп. – Москва: Проспект, 2013. 528 с.

7.Раҳмонқулов Х.Р. Фуқаролик ҳуқуқи муаммолари. Дарслик. –Т, ТДҲОИ. 2010. –Б.291.

8.Зокиров И.Б. Фуқаролик ҳуқуқи. Дарслик. –Т, ТДҲОИ. 2006. –Б.144.



9. Рассолова Т.М. Гражданское право: учебник для студентов вузов, обучающихся по специальности 030501 «Юриспруденция» / Т.М. Рассолова. – Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2017. 847 с

10. Гражданское право. Том 1: учебник / С.С.Алексеев, О.Г.Алексеева, К.П.Беляев; под редакцией Б.М.Гонгало. – Москва: Статут, 2017. 512 с.;

11. Абрамов В.Ю. Полный курс гражданского права России. Часть I. Общая часть: учебное пособие / В.Ю. Абрамов, Ю.В. Абрамов. – Москва: Статут, 2016. 688 с.

12. Гражданское право: учеб.: в 3 т. Т. 1. – 7-е изд., перераб. И доп. / В.В. Байбак, Н.Д. Егоров, И.В. Елисеев и др.; под ред. Ю.К. Толстого. – М.: Проспект, 2009. 784 с.

13. Manba: <https://sinaps.uz/bilasizmi/11988/>

14. Большая медицинская энциклопедия. URL: <https://xn-90aw5c.xn--c1avg/> (дата обращения: 20.12.2019).

15. Ўзбекистон Республикасининг “Дори воситалари ва фармацевтика фаолияти тўғрисида”ги қонуни. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 1-сон, 3-модда; 2017 й., 24-сон, 487-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 22.07.2020 й., 03/20/629/1087-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон; 12.10.2021 й., 03/21/721/0952-сон; 22.11.2023 й., 03/23/879/0873-сон; 15.02.2024 й., 03/24/908/0126-сон.

16. Ўзбекистонда қалбаки ва контрафакт дори воситалар муомаласини назорат қилиш муаммолари. 25 декабрь 2023 йил.

17. Topildiyev V.R. Fuqarolik huquqi. Ўқув қўлланма -Т.:Cho‘Iron nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. - 624 b.

18. Топилдиев В.Р., Рим ҳуқуқи. Дарслик;. –Т.: Янги аср авлоди, 2013. -263 б.

19. Топилдиев В.Р. Замонавий технологияларни фуқаролик-ҳуқуқий фанларнинг ривожланиши ва фуқаролик ҳуқуқий муносабатларга таъсири // “Fuqarolik huquqiy fanlarini rivojlantirish tendensiyalari va fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Т., 2022. 47-62 бетлар.

20. Топилдиев, В. Р. Фуқаролик ҳуқуқи. Дарслик. -Т.: “Университет, (2014).